



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

TOYLOQ SHEVASIDAGI IBORALAR VA ULARNING INGVOMADANIY TAHLILI

PHRASES IN THE TOYLOQ DIALECT AND THEIR LINGUOCULTURAL ANALYSIS

Gulchexra AHATOVA,

SamDU Urgut filiali o'qituvchisi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DOOZ8635

Annotation. *This article analyzes folk idiomatic expressions used in the speech of the Toyloq district population of Samarkand region from dialectological and phraseological perspectives. The study presents dialectal expressions in transcription, alongside their equivalents in the Uzbek literary language and semantic explanations. The idioms are classified into thematic groups denoting human character, emotional state, physical appearance, social relations, hospitality, material condition, speech behavior, and ironic evaluation. Dialectal units such as “ovuz”, “birovdi”, “muvarak”, “jaqinlasholmaysan”, “jerga”, and “tag‘nay” reflect regional pronunciation, phonetic variation, and figurative folk thinking. The article also discusses the linguocultural meaning of these expressions and substantiates their role in representing local oral speech and regional cultural identity.*

Key words: *Toyloq dialect, dialectology, phraseological unit, idiom, transcription, literary language, oral speech, linguoculture, semantic analysis.*

Kirish. O'zbek tilining hududiy shevalari xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, dunyoqarashi, nutqiy odobi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim manbadir. Ayniqsa, xalq og'zaki nutqida qo'llanadigan iboralar, maqolga yaqin birikmalar, kinoyali ifodalar va obrazli so'zlashuv birliklari ma'lum bir hudud aholisi nutqining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Toyloq shevasida qo'llanadigan iboralar ham mazmunan boy, ta'sirchan, obrazli va xalqona ruhga ega.

Berilgan iboralar inson xarakteri, tashqi ko'rinishi, ruhiy holati, xafalik, quvonch, shoshqaloqlik, ochko'zlik, g'iybat, beparvolik, kambag'allik, boylik, ichkilik, charchoq, mehmondorchilik va kundalik munosabatlarni ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Bu iboralar oddiy so'zlardan farqli ravishda nutqqa emotsional-ekspressivlik, kinoya, hazil, tanbeh va baholash ma'nolarini olib kiradi:

1. Inson xarakterini ifodalovchi iboralar:

Toyloq shevasidagi ko'plab iboralar insonning fe'l-atvori, odati, ichki xususiyati va ijtimoiy xulqiga baho berish uchun ishlatiladi. Masalan:

Ko'zi to'ymaydi – ochko'z, qanoatsiz odamga nisbatan ishlatiladi. Bu ibora insonning nafaqat ovqatga, balki boylik, mol-dunyo yoki e'tiborga bo'lgan haddan tashqari istagini ham bildirishi mumkin.

Birovdi ko'rolmaydi – baxil, hasadgo'y odam ma'nosida qo'llanadi. Bu yerda “ko'rolmaslik” fe'li bevosita ko'rish qobiliyati bilan emas, balki boshqa kishining yutug'i yoki baxtini hazm qila olmaslik bilan bog'liq.

Ichimnantop – kamgap, ichidagini bildirmaydigan, sirli odamga nisbatan aytiladi.

Muncha mumsiksan? – pismiqlik, indamas, o'z fikrini ochiq aytmaydigan odamga nisbatan kinoyali tarzda ishlatiladi.

Boqi beg'am – beparvo, tashvishsiz, hech narsani o'ylamaydigan odam.

Ko'ngli karim – saxiy, ko'ngli keng, boshqalarga yaxshilik qilishga moyil insonni bildiradi.

Bu guruhdagi iboralar xalq nutqida axloqiy baholash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular orqali odamning ijobiy yoki salbiy xususiyati qisqa, lekin ta'sirchan shaklda ifodalanadi.

2. G'azab, xafalik va ruhiy holatni bildiruvchi iboralar:

Toyloq shevasida insonning ichki kechinmalari, ayniqsa xafalik, asabiylik, g'azab, siqilish va quvonch holatlari juda obrazli ifodalanadi.

Ko'zini paxtasi chiqib – o'ta jahli chiqqan, qattiq g'azablangan odamga nisbatan aytiladi.

Joniga jaqinlasholmaysan – avzoyi buzuq, jahli chiqqan, gaplashishga ham bo'lmaydigan odam haqida ishlatiladi.

Tumshug'i turraygan – xafa, arazlagan yoki norozi odamning tashqi holatini bildiradi.

Ichi dix bo'lib ketmoq – siqilmoq, ichidan ezilmoq, ruhiy bezovtalik holatiga tushmoq.

Dimog'i chog' – xursand, kayfiyati yaxshi, mamnun odam holatini bildiradi.

Bu iboralar insonning ichki holatini tashqi belgilar orqali ko'rsatadi. Masalan, "tumshug'i turraygan" iborasida yuz ifodasi orqali xafalik ifodalanadi. "Dimog'i chog'" esa kayfiyatning ko'tarinki ekanini bildiradi.

3. Tashqi ko'rinish va jismoniy holatni ifodalovchi iboralar:

Ayrim iboralar odamning tashqi ko'rinishi, ozg'inligi, kattaligi yoki jismoniy holatini xalqona obrazlar orqali tasvirlaydi.

Kallasi karsonday – kallasi katta odamga nisbatan ishlatiladi. "Karson" yog'och tovoq ma'nosida bo'lib, bu yerda o'xshatish vositasi sifatida kelgan.

Beti tovoqday – yuzi katta, beti keng odamga nisbatan aytiladi.

Sayaga o'sgan makkayiday irg'indiq – juda oriq, nimjon odamga nisbatan ishlatiladi. Bu iborada soyada o'sgan makkajo'xorining zaifligi odamning ozg'inligi bilan qiyoslanadi.

Igna jegan itday – juda oriq, eti qolmagan odamga nisbatan aytiladi.

Ko'zi shokosaday – hayratlangan, qo'rqqan yoki ko'zlari katta ochilgan odam holatini bildiradi.

Ko'zing olma, kesak teradi – olazarak, har tomonga alanglab qaraydigan odamga nisbatan ishlatiladi.

Bunday iboralarda xalqning kuzatuvchanligi aniq ko'rinadi. Oddiy jismoniy belgilar tabiat, hayvonot, uy-ro'zg'or buyumlari bilan qiyoslanib, jonli tasvir yaratiladi.

4. Shoshqaloqlik, harakat va bezovtalikni bildiruvchi iboralar

Toyloq shevasida shoshilish, hovliqish, bir joyda tinch turolmaslik holatlari ham turli iboralar orqali ifodalanadi.

Shaytanlama – havliqma – shoshilma, hovliqma, o'zingni bos degan ma'noda ishlatiladi.

Bir nimadan quruq qolganday – juda shoshayotgan, nimagadir ulgurmay qolishdan qo'rqayotgan odamga nisbatan aytiladi.

Ikki oyog'ini bir etikka tiqib – juda shoshib, tez harakat qilmoq.

Jerga ursang – ko'kka sapchiydi – juda serharakat, tinib-tinchimas odam haqida.

Buncha jatarlama – chopma – hadeb yugurma, shoshilma degan ma'noni bildiradi.

Ter-ter qilmoq – undamoq, biror kishini tezroq harakat qilishga majbur qilmoq.

Bu iboralarda harakatning kuchliligi, odamning sabrsizligi yoki hovliqishi kinoya va mubolag'a orqali beriladi.

5. Nutq, gapirish va til bilan bog'liq iboralar

Toyloq shevasida til, og'iz, gapirish, adashib so'zlash, ko'p gapirish kabi holatlarni bildiruvchi iboralar ham ko'p uchraydi.

Tiliga teskan chiqqanma? – juda ko'p gapiradigan yoki tilini tiya olmaydigan odamga nisbatan kinoyali ibora.

Ovzi-ovziga tiymaydi – tez va ko'p gapiradi.

Tilim tayqanib ketdi – so'zdan adashdim, noto'g'ri gapirib yubordim.

Tilim aylanmaydi – ayto olmayman, talaffuz qila olmayman yoki gapirishga qiynalaman.

Tilimga jun chiqdi – ko'p gapirishdan, ko'p tushuntirishdan charchadim.

Dam bo' – jim o'tir, gapirma.

Dab bo' – yo'qol, ket bu yerdan degan keskinroq ifoda.

Bu iboralar xalq nutqida nafaqat gapirish holatini, balki munosabatni ham bildiradi. Masalan, “dam bo’” odatda tanbeh, “dab bo’” esa keskin norozilik yoki haydash ma’nosida ishlatiladi.

6. Mehmondorchilik va ijtimoiy munosabatga oid iboralar

Toyloq shevasida mehmondorchilik, salomlashish, tabriklash va odamlar o’rtasidagi muomala bilan bog’liq iboralar ham mavjud.

Ha, gap yeb qocharima? – ovqatdan so’ng darrov ketmoqchi bo’lgan mehmonga nisbatan aytiladi. Bu ibora “faqat gap eshitib ketasanmi, biroz o’tir” degan xalqona taklif va hazil aralash munosabatni bildiradi.

Quruq qoshiq ovuz jirtak – quruq gap yoki foydasiz harakat natija bermaydi degan ma’noga yaqin. Bu ibora mehmondorchilik, muomala va amaliy yordam zarurligini bildirishi mumkin.

Qulli bo’sin – “qulluq bo’lsin”, ya’ni yangi narsa, kiyim, uy-joy yoki biror quvonchli holat munosabati bilan aytiladigan tabrik ifodasi.

Muvarak bo’sin – “muborak bo’lsin” ma’nosida ishlatiladi.

Moyday yoqadi – juda ma’qul keladi, yoqimli tuyuladi.

Bu iboralar xalqning samimiyligi, mehmondo’stligi va ijtimoiy odobini aks ettiradi.

7. Boylik, manfaat va moddiy holatni bildiruvchi iboralar:

Berilgan iboralar orasida moddiy farovonlik, yaxshi ish, boylik yoki manfaat bilan bog’liq birliklar ham mavjud.

Moyli joyga ishlaydi – maoshi yaxshi, daromadli joyda ishlaydi.

Pichog’i moy ustiga – ishi yurishgan, boy, omadi kelgan odamga nisbatan ishlatiladi.

Moyday yoqadi – bu ibora ba’zan manfaatli, qulay yoki yoqimli holatga nisbatan ham qo’llanadi.

“Moy” so’zi bu iboralarda farovonlik, qulaylik va manfaat ramzi sifatida kelgan. Xalq tasavvurida “moy” to’kinlik va rohat timsoli bo’lib xizmat qiladi.

8. Oilaviy va ijtimoiy holatni bildiruvchi iboralar

Ayrim iboralar insonning oilaviy yoki ijtimoiy maqomini bildiradi.

Bir etak bola – bolasi ko’p odam yoki oila haqida ishlatiladi.

Boshi ochiq – ersiz, turmushga chiqmagan yoki eri yo’q ayolga nisbatan ishlatiladi.

Kimsan demaydi – mensimaydi, e’tibor bermaydi, odam o’rnida ko’rmaydi.

Buncha menjashma – tortishma, bahslashma, hadeb gap talashma degan ma’noda.

Bu iboralarda jamiyatdagi munosabatlar, oila, hurmat va mensimaslik kabi tushunchalar aks etadi.

9. Charchoq, bilmaslik va holsizlikni bildiruvchi iboralar

Toyloq shevasidagi ayrim iboralar odamning charchagani, holdan toyganini yoki biror narsadan bexabar ekanini ifodalaydi.

Boshim joyiga turmaydi – juda charchadim, boshim og’riyapti yoki o’zimni yomon his qilyapman.

Tilimga jun chiqdi – ko’p gapirishdan charchadim.

Go’rdiyam bilmayman – hech narsa bilmayman, mutlaqo xabarim yo’q.

Qurib ketgan – yo’q, topilmaydi, qolmagan.

Og’zim mana-mana deydi, qornim qani-qani – odamning yegisi kelayotganini, ishtahasi borligini yoki ochligini obrazli bildiradi.

Bu iboralar kundalik turmushdagi holatlarni jonli va ta’sirchan ifodalaydi.

10. Ichkilik bilan bog’liq kinoyali iboralar

Berilgan ro’yxatda ichkilik ichish yoki ichkilikka moyillikni bildiruvchi iboralar ham uchraydi.

Tag’nayini ho’llaydi – aroq ichadi, ichkilik iste’mol qiladi.

Tag'nayi taqillab turadi – ichkilik ichishni xohlaydi, ichishga moyilligi bor.

Bu iboralarida ichkilik bevosita nomlanmaydi, balki kinoyali va yumshatilgan tarzda ifodalanadi. “Tag'nay” so'zi og'iz bo'shlig'i, tanglay bilan bog'liq tasavvur uyg'otadi. “Ho'llaydi” esa ichish harakatini obrazli ifodalaydi.

11. Hayvon va tabiat obrazlari asosidagi iboralar

Toyloq shevasida hayvonlar, qushlar, o'simliklar va tabiat manzaralari asosida yaratilgan iboralar ko'p. Ular xalqning atrof-muhitni sinchiklab kuzatganini ko'rsatadi.

To'ygan qo'ziday – tinch, xotirjam, qorni to'q odam holatini bildiradi.

It-pishak bo'ma – urushma, janjallashma. Bu yerda it va mushukning chiqishmasligi odamlar o'rtasidagi janjalga qiyoslangan.

Chumchuqni ini ming tanga – vaziyat qiyin, joy tor yoki imkoniyat kam bo'lgan holatni bildirishi mumkin. Bu iborada chumchuq inining ham qimmatlashib ketgani orqali qiyinchilik kuchaytirib ko'rsatiladi.

Sayaga o'sgan makkayiday irg'indiq – zaif, oriq, nimjon odam.

Ignajegan itday – juda oriq odam.

Hakka po'x yemay turadi – juda erta turgan odamga nisbatan hazil yoki kinoya bilan aytiladi.

Bu iboralar xalqona obrazlilikning kuchli namunalidir.

12. Maqolga yaqin va tanbeh mazmunidagi iboralar

Ba'zi iboralar oddiy frazeologik birlikdan ko'ra maqol yoki nasihatga yaqin turadi.

Quruq qoshiq ovuz jirtak – quruq gap bilan ish bitmaydi, amaliy yordam kerak.

Boshimga jong'oq choqma – meni qiynama, boshimni og'ritma, ortiqcha tashvish keltirma.

O'roq o'rip, ketmon choptingma? – juda ko'p ish qilib qo'ygandek bo'lma yoki nega buncha charchading degan kinoyali savol.

Talqon yeb suvga yugurish kerak – shoshqaloqlik yoki bir ishni qilgandan keyin uning oqibatiga yugurish holatini bildiradi.

Bo'rini yo'qlasang bo'laykan – kimdir tilga olinishi bilan kelib qolsa aytiladi.

Xizrzi yo'qlasak bo'laykan – yaxshi odam yoki kerakli odam eslanganda kelib qolsa aytiladigan ibora.

Bu iboralar xalq donishmandligi, kinoya va hayotiy tajriba mujassam.

13. Fonetik va dialektal xususiyatlar

Toyloq shevasidagi iboralar xalq adabiy tildan farqli tovush va shakllar ko'zga tashlanadi.

Masalan: Adabiy tildagi og'iz so'zi shevada ovuz shaklida kelgan: Quruq qoshiq ovuz jirtak.

Adabiy tildagi birovni shakli birovdi tarzida ishlatilgan: Birovdi ko'rolmaydi.

Adabiy tildagi muborak so'zi muvarak shaklida kelgan: Muvarak bo'sin.

Adabiy tildagi qulluq bo'lsin shakli qulli bo'sin tarzida qo'llangan.

Adabiy tildagi yaqinlasholmaysan shakli shevada jaqinlasholmaysan tarzida berilgan.

Bu kabi xususiyatlar shevaning fonetik, leksik va morfologik o'ziga xosligini ko'rsatadi.

14. Iboralarning semantik guruhlanishi

№	Iboralar guruhi	Misollar	Ma'nosi
1	Xarakter bildiruvchi iboralar	Ko'zi to'ymaydi, birovdi ko'rolmaydi, boqi beg'am	Inson fe'l-atvori
2	Ruhiy holat bildiruvchi iboralar	Tumshug'i turraygan, ichi dix bo'lib ketmoq, dimog'i chog'	Xafalik, siqilish, xursandlik
3	Tashqi ko'rinish bildiruvchi iboralar	Kallasi karsonday, beti tovoqday, ignajegan itday	Tashqi ko'rinish
4	Harakat bildiruvchi iboralar	Ikki oyog'ini bir etikka tiqib, ter-ter qilmoq	Shoshilish, undash

5	Nutq bilan bog‘liq iboralar	Tilim tayqanib ketdi, tilim aylanmaydi, dam bo‘	Gapirish holati
6	Mehmondorchilik iboralar	Gap yeb qocharima, qulli bo‘sin, muvarak bo‘sin	Muomala va tabrik
7	Moddiy holat iboralar	Moyli joyga ishlaydi, pichog‘i moy ustiga	Boylik, manfaat
8	Ichkilikka oid iboralar	Tag‘nayini ho‘llaydi, tag‘nayi taqillab turadi	Ichkilikka moyillik
9	Bilmaslik va charchoq iboralar	Go‘rdiyam bilmayman, boshim joyiga turmaydi	Behabarlik, holsizlik
10	Tanbeh va kinoya iboralar	Boshimga jong‘oq choqma, it-pishak bo‘ma	Ogohlantirish, tanbeh

№	Toyloq shevasidagi ibora	Adabiy tildagi ma‘nosi
1	To‘ygan qo‘ziday	Tinch, xotirjam
2	Talqon yeb suvga yugurish kerak	Shoshilinch holat, oqibatga yugurish
3	Shaytanlama – havliqma	Shoshilma, hovliqma
4	Tiliga teskan chiqqanma	Ko‘p gapiradigan odam
5	Juda sho‘tqarida	Juda sho‘x
6	Bo‘rini yo‘qlasang bo‘laykan	Eslangan odam kelib qolsa aytiladi
7	Xizrdi yo‘qlasak bo‘laykan	Yaxshi odam eslanganda kelib qolsa aytiladi
8	Ha, gap yeb qocharima?	Ovqatdan keyin darrov ketmoqchi bo‘lgan mehmonga aytiladi
9	Qonning qovzannima?	Jo‘ydingmi, nima bo‘ldi?
10	Hakka po‘x yemay turadi	Juda erta turgan odamga nisbatan
11	Ichimnantop	Kamgap, pismi
12	Jerga ursang — ko‘kka sapchiydi	Juda serharakat
13	Quruq qoshiq ovuz jirtak	Quruq gap foydasiz
14	Bir etak bola	Bolasi ko‘p
15	Yamon yaxshi ko‘raman	Juda yaxshi ko‘raman
16	Bir nimadan quri qoganday	Juda shoshgan odam
17	Ko‘zi to‘ymaydi	Ochko‘z
18	Ko‘zini paxtasi chiqib	O‘ta jahli chiqqan
19	Ko‘zi shokosaday	Ko‘zi katta ochilgan, hayron
20	Ko‘zi to‘ymaydi	Ochko‘z
21	Birovdi ko‘rolmaydi	Baxil, hasadgo‘y
22	Ikki oyog‘ini bir etikka tiqib	Juda shoshib
23	Muncha mumsiksang?	Pismi
24	Shunchalaram o‘shakchi bo‘ladimi odam?	G‘iybatchi odamga nisbatan
25	Moyli joyga ishlaydi	Maoshi yaxshi joyda ishlaydi
26	Ovzi-ovziga tiymaydi	Juda ko‘p gapiradi
27	Kimsan demaydi	Mensimaydi
28	Buncha menjashma	Tortishma, bahslashma
29	Boshimga jong‘oq choqma	Meni qiynama, boshimni og‘ritma
30	O‘roq o‘rip, ketmon choptingma?	Juda charchadingmi, ko‘p ish qildingmi?
31	Tilim tayqanib ketdi	So‘zdan adashdim

32	Ko‘zing olma, kesak teradi	Olazarak qaraydi
33	Bir qaynovi kam	Aqli pastroq
34	Boqi beg‘am	Beparvo
35	Beti tovoqday	Yuzi katta
36	Pista po‘choqqa joy qoldi	Juda tor joy
37	Buncha jatarlama	Chopma, yugurma
38	Tamannasi toshti yoradi	Juda nozli, talabchan
39	Moyday yoqadi	Juda ma‘qul keladi
40	Pichog‘i moy ustiga	Boy, ishi yurishgan
41	It-pishak bo‘ma	Urushma, janjallashma
42	Kallasi karsonday	Kallasi katta
43	Chumchuqni ini ming tanga	Qiyin, tor yoki qimmat holat
44	Tumshug‘i turraygan	Xafa, arazlagan
45	Saygilisini tanla	Saratoni, eng yaxshisini tanla
46	Sayaga o‘sgan makkayiday irg‘indiq	Juda oriq, nimjon
47	Joniga jaqinlasholmaysan	Avzoyi buzuq, jahli chiqqan
48	Igna jegan itday	Juda oriq
49	Boshi ochiq	Ersiz
50	Ko‘ngli karim	Saxiy, ko‘ngli keng
51	Tag‘nayini ho‘llaydi	Aroq ichadi
52	Tag‘nayi taqillab turadi	Ichishni xohlaydi
53	Qulli bo‘sin	Qulluq bo‘lsin
54	Muvarak bo‘sin	Muborak bo‘lsin
55	Boshim joyiga turmaydi	Charchadim, holsizman
56	Tilim aylanmaydi	Aytolmayman
57	Og‘zim mana-mana deydi, qornim qani-qani	Qornim och, yegim kelyapti
58	Tilimga jun chiqdi	Gapirishdan charchadim
59	Qurib ketgan	Yo‘q, qolmagan
60	Go‘rdiyam bilmayman	Hech narsa bilmayman
61	Ter-ter qilmoq	Undamoq, tezlatmoq
62	Ichi dix bo‘lib ketmoq	Siqilmoq
63	Dam bo‘	Jim o‘tir
64	Dab bo‘	Yo‘qol, ket
65	Dimog‘i chog‘	Xursand, kayfiyati yaxshi
66	Qaysi jirindida yuribsan	Qayerlarda yuribsan, noma‘lum joyda yuribsan

Xulosa

Toyloq shevasidagi iboralar xalq nutqining obrazlilik, emotsionallik va baholovchanlik xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatadi. Bu iboralar orqali Toyloq hududi aholisi inson xarakteri, ruhiy holati, tashqi ko‘rinishi, ijtimoiy munosabati, mehmondorchilik odobi, moddiy ahvoli va kundalik hayotdagi turli vaziyatlarni jonli, ta’sirchan va xalqona tarzda ifodalaydi.

Mazkur iboralarda hayvon, o‘simlik, uy-ro‘zg‘or buyumlari, tana a‘zolari va kundalik turmush detallariga asoslangan obrazlar keng qo‘llangan. “Igna jegan itday”, “to‘ygan qo‘ziday”, “kallasi karsonday”, “sayaga o‘sgan makkayiday”, “pichog‘i moy ustiga” kabi iboralar xalqning kuzatuvchanligi va obrazli tafakkurini namoyon etadi.

Shuningdek, bu iboralar Toyloq shevasining fonetik va leksik xususiyatlarini ham saqlab qolgan. “Ovuz”, “birovdi”, “muvarak”, “bo‘sin”, “jaqinlasholmaysan”, “jerga” kabi shakllar mahalliy talaffuz va shevaviy rang-baranglikni ko‘rsatadi. Shu jihatdan Toyloq shevasidagi iboralarni

o'rganish o'zbek dialektologiyasi, frazeologiyasi, lingvokulturologiyasi va xalq og'zaki nutqi tadqiqi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev F. O'zbek tilining Xorazm shevalari. – Toshkent: Fan, 1961.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.
4. Jo'rayev B. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1971.
5. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
7. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1978.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
9. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent., 2006–2008.
11. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1971.
12. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. – Samarqand: SamDU nashri, 2013.
13. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.
14. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
15. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.